

I

Shaharning g'arbga qaragan qumtepalari ortidan Marvga qad-qomati mayishgan, yuz-ko'zlari so'lg'in, barmoqlari cho'ltoq bo'lgan ozg'in chol kirib kelganida, bozorda, B bo'zchilar va bir-ikkita daydib yurgan tilanchi bolalardan bo'lak hech kim qolmagandi. U endilikda berkitilgan mo'yna va charm buyumlari rastalari orasidan o'tib musiqa asboblari va javonlari sotadigan rastalar oldida bir oz garangsib turdi-da, bu yerda hech kim yo'qligiga ishonch hosil qildi chog'i, bozorga kiraverishdagi bo'zchilar rastasi tomon qaytdi.

- Sizga biron narsa kerakmi otaxon? - so'radi bo'zchilardan biri turli-tuman o'lchamdagi bo'zlarini yig'ishtirish bilan andarmon bo'lar ekan.

- Ha, kerak, - dedi chol bo'zchi yigitning rastasi oldida to'xtarkan. - Men bir vaqtlar eski musiqa asboblarimni huv anovi rastada savdo qiladigan bir tanishimga omonatga berib ketgandim.

- Asboblaringizni allaqachon sotib yuborishgandir?! - cholga bepisandlik bilan qaradi bo'zchi yigit.

- Ehtimol, - dedi chol horg'inlik bilan. - Men hech bo'lmasa bitta sozimni olsam ham mayli edi.

- Otaxon, siz o'zi kim bo'lasiz? - bo'zchi yigit cholga termuldi.

- Men Borbadman, - dedi chol.

- Borbad?! - kutilmaganda hayqirib yubordi bo'zchi yigit. - Siz Borbadmisiz, siz-a?!

U astoydil xoxoladi. Yon-atrofdagi boshqa bo'zchilar ham cholga bejo qaragancha kulimsirashdi. Chol ham ularga qarab turardi.

- Bu kishi Borbad emish, - hamon xoxolardi yigit. - Agar siz Borbad bo'lsangiz, men turk hoqoni Istaminman.

Bu gapdan boshqa bo'zchilar ham xandon otib kulishdi. Ammo bo'zchi yigit endi o'zini tutib olgandi.

- Qani, otaxon, bu yerdan tez jo'nab qoling-chi?B - uning ko'zi cholning cho'ltoq barmoqlariga tushdi. - Borbad emish. Balki shu cho'ltoq barmoqlaringiz bilan musiqa ham chalarsiz?! Tavba, odamlarga ham hayronsan. Tilanchi bo'lsang, tilanchiman deya qolgin-da. Borbadman deydi-ya.

- Sen aytgandek tilanchimasdir?! - unga tanbeh berdi boshqa bo'zchi. - Egnidagi ust-boshiga qara! Darveshlarning xirqasini kiyib olganku?!

- Xirqami, jandami, nima farqi bor?! Men uchun u bir gadoy, - sherigini jerkib berdi bo'zchi yigit. - Y@zimiz peshona teri bilan kun kechirayotgan bo'lsak, bunaqalar bilan adi-badi aytib o'tiramizmi?! Bu juldurvoqi kiyinganlarning hammasi bir go'r. Avval yo'lini qilib ichingga kiradi, so'ng pul so'raydi. Hozir indamaganimda bu qariya ham shunday qilardi. Kimsan Borbadman degani-chi?!

Hamrohi bunga javoban nimadir dedi. Ammo endi bo'zchilarning oldidan ancha uzoqlashib ketgan chol ularning gap-so'zlarini eshitmasdi. Ha, u haqiqatan ham kimsan Borbad edi. Biroq endi uning Borbadligiga hech kim ishonmaydi. Hatto o'zi ham. U bozor rastalaridan tashqariga chiqqach, endi qayga boraman deb o'yladi. Shunda bolaligi va o'smirligi o'tgan qadrton uyi esiga tushdi.

Ha, u damlar boshqacha, bamisoli oppoq musiqa edi. Otang, onang hayot bo'lgan bolaliging va o'smirligingga nima yetsin. Otasi, ilk bora o'shanda, unga soz chalishni o'rgatgandi. Ularning uyida har xil musiqa asboblari bo'lardi. Otasi ularni bejirimgina qilib ishlangan tokchalarda ilib qo'yardi. Borbad goh oshkora, goh yashirincha bu asboblarni chalishga urinardi. Otasi Marv hokimi saroyida musiqachi edi. U goh-gohida Borbadni ham u yerga olib borardi. Hokim saroyida ham bazi-bazida Buxoro, Samarqand, Xorazm va hatto olis Binkatdan ham sozchilar kelib turishardi. Ana o'shanda Marv hokimining saroyi oppoq musiqaga to'lardi.

Hokimning sarvdek go'zal qizi bor edi. U Borbadni yuragidan urgandi. Borbad oqshomlari yulduzlarga qarab musiqa chalganida har ga luni o'ylardi. Yulduzlar millatlardi. Shunda Borbad hokimning go'zal qiziga atab yozgan sherlariga musiqa bastalardi. Notalar sadosi yulduzlarni sehrlardi. Oppoq musiqa kechalarni tongga ulardi. O'sha ajib lahzalarga u gulzor haqida qo'shiq kuylardi. Uning najib xonishi gul bargida qo'ngan kapalaklarni uyg'otardi. Oppoq musiqa gullar rohini elab, oppoq tong qo'yniga singib ketardi. U yana polizbonu ravshan charog'lar to'g'risida kuylardi. Bahor va gullar haqida eshilib to'lg'onardi. Ona mushtipar shunday lahzalarda o'g'lidan xavotir oldi. Oqshomlari bilan sher yozib, kuy bastalagan o'g'lini tongni qo'shiqlar bilan kutib olishi onasini hiyla cho'chitardi. Onasining azayimxon dugonalarining aytishicha, musiqaga bu qadar fikru-yodi bilan berilib ketish inson ruhini telbalik chohiga qulatar ekan. Zeroki musiqa, inson ruhiga eng tez misli ohangrabodek tasir qiluvchi qudratga ega bo'lib, uning domiga tushgan odam, hech qachon undan chiqib ketolmas ekan. Ammo u paytlar Borbad bunday o'ylamasdi. Uni musiqadan ham ko'proq muhabbat asir etganini azayimxonlar qayerdan ham bilardi?! To'g'ri, u musiqani ham sevardi. Biroq tan olish kerakki, u paytlar musiqa Borbad uchun o'zini namoyon qilish vositasi edi. Borbadning musiqani o'rganish ishtiyoqini muhabbat badtar alangalatib yubordi. Buni azayimxonlar gapiga ishonib yurgan onasi qayoqdan ham tushunardi?! Biroq otasi tushunardi. Axir u ham musiqachi-ku?! Musiqachining dilini musiqachi yaxshi tushunadi.

- Borbad, - dedi bir kuni otasi. - Seni yaxshi tushunaman o'g'lim. Musiqaga bo'lgan muhabbatningni namoyon qiladigan paytlaring keldi. Men seni hokim saroyiga olib boraman. Hokim qizining tavallud ayyomiga chiroyli musiqa chalib berasan.

- Kechirasiz, otajon, - dedi Borbad. - Hokim qizining ismi nima ekan?..

- Gulno'sh, - dedi otasi avvaliga, so'ng nimadandir xavotir oldimi Borbadni so'roqqa tutdi. - Menga qara bola, hokim qizining ismi senga nega kerak bo'lib qoldi. Yana bir narsani boshlab yurmagin.

- Otajon, - dedi Borbad. - Xotiringiz jam bo'lsin. Ko'nglingizni to'q qiling. Men Gulno'shni ismini shunchaki so'radim.

Otasi unga ishonqiramay qarab qo'ydi. Ammo o'sha kundan keyin, otasi uyda yo'q vaqtlarida Borbad Gulno'sh haqida xirgoyi qila boshladi:

Mehritobon Gulno'sh, Gulno'sh,  
Oromijon Gulno'sh, Gulno'sh.

Bu qo'shiq oppoq musiqaga yo'g'rilgandi. Uning har bir satrida Gulno'shning tongdek beg'ubor chehrasi, qora qoshlari-yu uzun sochlari, adl qomati-yu sarv bo'ylari tarannum etilardi. Otasidan yashirincha bastalangan bu musiqa kuy iva qo'shiqni Borbad hokim qizining tavallud ayyomida kuyladi. Saroyda shaharning kazo-kazo ayonlaridan tortib, uzoq-yaqindan chaqirtirilgan sozandalaru mashshoqlar yig'ilgandi. Hamma xursand edi. Shodiyonalar avjida, dasturxonlar navro'zdagi kabi turli tuman yeguliklar bilan to'lib-toshgandi. Mashhur hofizlar qo'shiq aytardi. Sozandalar tinimsiz sozlarni chalishardi. Borbad otasi yonida jimgina Gulno'shga qarab o'tirardi. U qizga shu qadar mahliyo bo'lib qolgan ediki, tavallud ayyomini olib borayotgan suxandon navbatni saroy musiqachisining o'g'li Borbadga berganini ham sezmedi. Otasi uni turtdi:

- Borbad, nega xayol surasan?! Navbatni senga berishdi. Davraga chiqib biror chiroyliB qo'shig'ingdan ijro etib ber.

1 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Xo'p,B - Borbad shoshib, esankirabroq davraga chiqdi.

Shunda u Gulno'shning ham o'ziga qarab turganligini ko'rdi. Ikki yoshning ko'zlari-ko'zlariga tutashdi. Borbad qo'lidagi sozini qaramasdan sekin-asta chala boshladi. Oppoq kiyingan, sozi ham oq rangga bo'yalgan bu yigitcha nima karomat ko'rsatarkan degandek, hamma jimgina qarab turardi. U nihoyatda mayin ohanglarga yo'g'rilgan ajabtovur va dilga xush yoquvchi musiqalardan birini chala boshladi. Saroy suv quygandek osudaxotir quloq tuta boshladi. Nota pardalari biroz ko'tarilgach, Borbadning musiqaga monand sehrli ovozi atrofda qilarni bamisoli afsungar kabi sehrlab qo'ydi. Hokim saroyi musiqa va qo'shiqning oppoq rangiga to'ldi. Bu ovoz va musiqa sohibi Gulno'shni ham o'ziga rom etdi. Hamma lolu-hayratda sehrli ovoz sohibining domiga tushgandi. Avvaliga hech kim musiqaning savqi tabiiy afsuniga uchibmi, yo Borbadning misli ko'rilmagan shirali ovozi tasiridanmi, dafatan, qo'shiqni manosiga etibor qilishmadi. Qo'shiq Gulno'sh to'g'risida ketayotganligini Borbadning otasi, hamda, shahar hokimi birinchilardan bo'lib ilg'ashdi. Ungacha buni Borbad musiqa chalgan hamonoq Gulno'shning o'zi ilg'agandi. Yig'ilganlarning barchasi musiqa va qo'shiqning oppoq afsuni bilan sehrlangandi. Borbadning otasi o'g'lini ehtiyotsizligidan unga zaxm yetib qolishini o'ylab unsizgiga titradi. Hokimning ko'zlarida g'azab uchqunlari tosha boshladi. Gulno'shning ko'zlarida esa Borbadga nisbatan cheksiz mehr va muhabbat uyg'ondi. Zero, bu oppoq rangli muhabbat musiqasi edi. Biroq bu muhabbat sarob yanglig' o'sha oqlik qo'yniga erib ketdi. Hokim, o'sha tavallud ayyomining ertasigayoq Borbadning otasini chaqirtirib o'g'lini shahardan chiqarib yuborishini tayinladi:

- Mening ko'p yillardan beri sodiq xizmatkorim ekanligingni inobatga olib, o'g'ling Borbadga ziyon yetkazishni istamayman, - dedi hokim. - Ammo u shu bugunoq shahardan chiqib ketishi darkor.

- Hokim janoblari, o'tinaman sizdan, men va xotininga raxmingiz kelsin. Borbad yolg'iz o'g'limiz. Ko'zimizning oqu-qorasi. Uni bizdan ayirmang.

- Bas qil, - dedi hokim. - Sening diydiyongni ortiq eshitishni istamayman. Mening qizim kimu sening o'g'ling kim?! O'zi o'g'lingni Gulno'sh ismini tilga olgani uchun tilini sug'urib olishim lozim edi. Agar o'g'ling ertagacha Marvdan chiqib ketmasa, joni uzildi deyaver.

Bu hokimning uzil-kesil qarori edi. Butun Marvda hech kim unga qarshi chiqolmasdi. Demak, Borbad ketishi kerak edi. Otasidan bu xabarni eshitgach, yosh musiqachi qattiq hayojonga tushdi. Axir qanday qilib tug'ilib o'sgan shahrini tashlab ketadi?!

Gulno'shni-chi?! Unga bo'lgan muhabbatini-chi?! Ularni qanday tashlab ketadi?! Yo'q, Borbad bunday qilolmaydi. U shu yerda tug'ilgan, shu yerda o'ladi. Agar Marvni tashlab ketish mumkin bo'lganida edi, yo, Buxoro, yo, Samarqand, yo, Xorazmga ketardi. Balki, bu yerdan hiyla olis, o'sha uzoq Binkatga ham ketardi. Marvga o'sha yoqlardan kelgan sozandalaru mashshoqlar u yerlarning hokimlari ham sanatga bo'lakcha mehr bilan qarashlari haqida so'zlab berardi. Borbad o'shalar bilan ketmaganda, endi dafatan, uyidan haydalgan it kabi Marvni tashlab ketadimi?!

- Agar ketmasang, ertaga dorga osilasan o'g'lim, - unga to'g'risini aytdi otasi.

- Nega ham o'sha Gulno'sh haqida qo'shiq aytding?! - yig'ladi onasi. - Seni osishsa, qanday chidayman o'g'lim. Yo'q, sendan oldin meni osishsin!

- Nimalar qilib qo'yganingni ko'ryapsanmi o'g'lim, - dedi otasi. - Endi boshqa ilojimiz yo'q. Narsalaringni yig'ishtir. Hozir karvonsaroyga boramiz. Birinchi karvon qayoqqa ketsa, o'sha yoqqa jo'nab ketasan. Xudodan bo'lak hech kim abadiy hokim bo'lolmaydi. Marvga bir kun qaytarsan.

Shunday qilib otasi uni karvonsaroy tomonga olib bordi. Mushtipar onasi ortidan yum-yum yig'lab qoldi. O'shanda musiqaning oppoq rangi onasining ko'z yoshlariga singib Marv tuproqlariga yog'ildi. Musiqa javonlarini ko'tarib olgan Borbad uyidan ketib borarkan, bu Marv osmonidan yog'ayotgan yomg'irmidi, yo, onasining ko'z yoshlarimidi, dafatan ilg'ayolmadi. Borbad yomg'ir ostida negadir mustar bo'lib qolgandi. O'shanda u oppoq musiqaning o'zidan uzoqlashib ketganligini ko'rdi. Karvonsaroyga yaqinlashib qolganlarida u tuyqusdan otasiga musiqa asboblari tashlab ketmoqchi ekanligini aytib qoldi.

- Ko'nglim g'ash, - dedi u otasiga. - Gulno'shdan ayrilar ekanman, endi ular menga kerak emas.

- Unday dema o'g'lim, - dedi otasi. - Musiqa bizning qonimizda yashaydi. Bilaman, sen hozir xafasan. Musiqa xursandchilik vaqtlarimizda senga qanday huzur bag'ishlagan bo'lsa, xafa va mustar vaqtlaringda ham qalbingda shunday taskin bera oladi. Musiqa shunday qudratli kuchga ega.

- Mayli, nima demang, baribir musiqa asboblaringni olib ketmayman. Hozirgi holatimda mening qarorim qat'iy. Agar kerak bo'lsa, hamma katta shaharlardan musiqa asboblari topish mumkin. Ammo bularni olib ketmayman. Siz ularni uyga qaytarib olib boring.

- Yo'q, - dedi otasi. - Sen ularni uydan olib chiqqan ekansan, men ularni uyga qaytarib olib bormayman. Onangni bu asboblarni ko'rsa, yuragi eziladi. U har gal bularni ko'rsa, seni eslab yig'laydi. Shuning uchun uyga olib bormaganim maqul.

- Ota, unda nima qilamiz?..

- Yur, musiqa asboblari sotadigan rastaga kiraylik. U yerda mening bir do'stim bor. O'sha yerga bularni omonat qoldiramiz.

Qachondir o'zing Marvga qaytsang, ularni qaytarib olasan. Do'stinga omonatni kelguningcha saqlashi uchun maoshimdan ulush berib turaman.

Borbad otasining ortidan yurdi. Ular musiqa asboblari sotadigan rastaga kirishdi. Otasi vaziyatni tushuntirdi.

- Yaxshi, tushundim do'stim, - dedi musiqa asboblari sotadigan rastaning egasi. - O'g'ling kelgunicha, bu asboblarni ko'z qorachig'iday asrayman. Mana, qo'lni oling.

U Borbad bilan qo'l siqib ko'rishdi. Shu bilan ular karvonsaroyga jo'nab ketishdi. Ne taqdirki, bugunoq, Marvdan Eronga jo'nab ketadigan karvon bor ekan. Otasi, Borbadni ham Eronga olib ketishga karvonboshini bir amallab ko'ndirdi.

- O'g'lingiz Borbadni hokim qahriga uchraganini eshitdim. Hozir hammaning og'zida shu gap, - dedi karvonboshi yo'l xarajatiga Borbadning otasi bergan pulni sanab olarkan. - Xotirjam bo'ling, o'g'lingizni Eronga eson-omon eltib qo'yaman.

- Xavotir olmang ota, - dedi Borbad. - Joylashib olganim hamonoq men sizga xat yozaman. Marvga keladigan karvonlardan berib yuboraman. Karvonsaroy bilan bog'lanib turing.

- Xo'p o'g'lim, - dedi otasi. - Biz onang bilan senga albatta javob yozamiz. Xayr, oy borib omon kel.

Ota-o'g'il quchoqlashib xayrlashishdi. Karvonboshi Eronga minib borish uchun Borbadga bir xachirni ro'baru qildi:

- O'zi yaxshi xachir. Uzun yo'lda charchoq nimaligini bilmaydi. Tuyadan kam joyi yo'q.

- Mayli, shunisiga ham raxmat!

Yo'l Borbad uchun ana shunday boshlandi. Yomg'ir yo'l-yo'lakay bir zumga ham tinmadi. Karvondagilar yomg'irpo'shtlariga o'ralib olishdi. Karvonboshi baquvvat otlar qo'shilgan aravaga chiqib oldi. Borbad to'g'risida esa hech kim qayg'urmadi. U o'sha-o'sha,

yomg'ir ostida ivib, tuyadan hech ham kam joyi yo'q bo'lgan xachirda bir meyorda karvon ortidan borardi.

- Ortda qolmanglar. Karvonga yetishib yuringlar, - har zamonda karvonboshining shunday hayqirig'i eshilib turardi.

Karvon Marvning g'arbidagi qumtepalar osha ildamlab borardi

## II

Yomg'ir borliqqa bahor kelganligidan darak berdi. Maysalar nish urdi. Bepoyon adirlar tim yashillik bilan qoplendi. Borbad Eronga karvon bilan kelgandan beri musofirxonalardan birida yashab yurardi. U hamon Gulno'sh haqida o'ylardi. Ammo bu pokiza xayol endi borgan sari unga bir ro'yoday tuyulardi. Agar muhabbat faqat taxayulda yashasa, alal-oqibat sarobga aylanadi. Borbad buni juda yaxshi bilardi. Demak, nimadir qilmoq lozim. Borbad o'ylab-o'ylab axiyri Eron shohi Xusrav saroyiga borishga ahd qildi. Oxir-oqibat bu ahd qat'iy qarorga aylandi. U musofirxonani tark etib shoh saroyiga bordi. Ammo uni u yerga shunchaki kiritishmasdi. Xusrav saroyiga uni faqatgina musiqa olib kirardi. Shunda u yuragining tub-tublarida hali-hamon musiqa yashayotganligini ilg'adi. Biroq endi bu musiqa Gulno'shni ko'rgan davridagi oppoq musiqa emas, bilaks, u onasining ko'z yoshlari bilan qarddon uyining ostonasidagi Marv tuproqlariga singib ketgan edi. Bu musiqa, o'sha ko'z yoshlar va karvonda ketayotganida, Marv yomg'irlari ostida ulg'ayib qolgan yigitning bahorini musiqasi edi. Uning rangi oq emas, bilaks, adirlar osha kirib kelgan bahor kabi yam-yashil edi. U ana shu yashil musiqani kuylamoq uchun Xusrav saroyiga bot-bot kelaverdi. Izlagan imkon topadi deganlaridek, axiyri u saroy sanatkorlarining boshlig'i Sarkash bilan uchrashishga muvaffaq bo'ldi. Orasta kiyingan qirg'iyburun Sarkash uni xushlamaygina, bepisandlik bilan kutib oldi:

- Marvdan shuncha yo'l bosib kelgan ekansan, mayli, seni guruhga olaman, ammo musiqa asboblarni yaxshi chalolmaydigan bo'lsang, o'sha kuniyoq B B ishingdan ayrilasan.

- Ishonchingizni oqlashga harakat qilaman taqsir, - dedi Borbad.

Sarkash uni saroyning musiqa xonasiga yetaklab kirdi. Bu yerda qadimiy torlardan tortib, doira-yu sozlar, tanburu dutorlargacha bor edi. Borbad ularga avvalgidek ishtiyiq bilan termuldi. Xayolida yomg'ir ostida iqadirlar osha kelayotganida ko'rgan yashil musiqa jonlandi. Sarkash musiqa asboblarni ko'rib hayratda qolgan Borbadga dedi:

- Ularni qaysi birini chala olasan?

- Qaysini chal desangiz o'shani, - ortiqcha kamtarliksiz javob qildi Borbad.

Sarkash eshitgan quloqlariga ishonmadi. Borbad bu musiqa asboblarni har birini alohida shunday go'zal uslubda chalib ko'rsatdiki, endi Sarkash hayratdan dong qotdi. Shunday bo'lsa-da, u sir boy bermaslik uchun dedi:

- Borbad, sen yanada yaxshiroq mashq qil. Ammo harakatlaring chakki emas. Hozircha, menikida yashab turasan. Bu yerga ham kelib o'z ustingda ishlaysan. Maoshingni saroy hisobidan olasan.

- Bu yaxshiligingizni o'la-o'lguncha unutmaysan, - dedi Borbad.

UB shunday qilib saroyda o'rtnashib oldi. Endi u Sarkashning uyida yashar va saroydan maosh olardi. Sarkash unga ko'p navozishlar va mehribonliklar ko'rsatar, ammo saroydagi sanat kechalariga uni musiqachi sifatida olib borishga shoshilmasdi. Borbad musiqa kechalariga qatnashishni intilqik bilan kutar, astoydil mashq qilar, ammo Sarkash o'z nomiga monand uni katta sahnaga olib chiqishga sarkashlik qilardi. Borbad bir kuni Sarkash musiqachilari guruhidagilardan, Navro'z arafasida Xusrav mamlakatda katta tantanalari o'tkazishini, xususan, saroy bog'ida shohona musiqa sayli tashkil etilishini eshitib, yuragi qattiq hapriqdi. U bu kechaga ishtirok etishni juda ham istardi. Bu haqda Sarkashga aytgandi, ammo u buni xushlamaygina dedi:

- Borbad, men seni shohimiz Xusravga ulug' musiqachi sifatida tayyorlab bermoqchiman. Ammo sen haddan tashqari shoshilyapsan. Men seni o'zim istagan darajaga olib chiqmasdan barbod qilmoqchimasman.

Borbad unga ortiq so'z demadi. Tushundiki, buning bari foydasiz. Chunki u Sarkash biladigan narsalarni allaqachonlardan beri bilardi. Ammo u biladiganlarini Sarkash hali ko'plarini bilmasdi. U Sarkash va Xusravga B kutilmagan yangilik tayyorlashni xayoliga tugib qo'ydi. Musiqachilar guruhidan Xusrav bog'idagi sayl qachon bo'lishini avvaldan bilib olarkan, ko'nglida yetuk bir reja yetila boshladib

Buni Xusrav saroyidagilar va Sarkashning musiqa dastasi saroy bog'ida musiqa sayli bo'layotgan vaqtda ilg'ashdi. Shoh Xusrav va uning ayonlari saroy bog'ida musiqachilarning navbatma-navbat kuylayotgan oromijon qo'shiqlarini tinglayotgan bir mahalda bog'ning boshqa tarafidan ulug' bir musiqa yangradi. Sarkashning musiqa dastasi va saroydagilar bu sehrli ohangraboning tasirida bir muddatga o'sha tomonga quloq osishdi. Bu musiqa shunday qudratli kuchga ega ediki, uning ohanglari oldida o'zga kuy va musiqaning jarangi quloqlarga kirmas, boshqa kuy va sadolar u joydan taralayotgan navoning oldida nog'ora chalishdek arzimmas bir yumushga aylanib qolayotgandek edi. Shoh Xusrav hayratini yashira olmay o'rnidan turarkan, ayonlarga dedi:

- Men o'sha yoqqa bormoqchiman!

Boshqalar ham shoh Xusrav ortidan ergashdi. Bog'ning shimolga qaragan xilvat go'shasida, yam-yashil maysazorlar ichida, o'zi ham yashil kiyigan, qo'lidagi musiqa asboblari ham yashil rangga burkangan bir yigit o'sha diltortar va qablarni sehrlovchi musiqani chalib, navro'zga atalgan qo'shig'ini kuylardi. Uning ovozi atrof-javonibni butunlay sehrab qo'yg'an, nafaqat odamlarning, balki, qushlar va daraxtlarning ham qalbini ana shu kuy, ana shu musiqa, ana shu sehrli ovoz afsun kabi elitib qo'yg'andi. U qo'shiq va kuyini nihoyalaguncha, hech kim joyidan qo'zg'almadi, hamma tik turganicha, ulug' musiqachining kuy va qo'shig'i yakun bo'lishini kutdi. Nihoyat u Navro'zga bag'ishlangan kuy va qo'shig'ini yakunladi va Xusravga tazim qildi. Hayratu shavqdan hamon o'ziga kelolmagan Xusrav huzuridagi yigitni zo'rg'a kimligini so'ray oldi.

- Men Borbadman, shahonshoh, - unga yana bir bor tazim qildi musiqachi. - Saroy musiqachilarining boshlig'i Sarkashning shogirdi bo'laman.

- Sarkashning shogirdi?! - hayron bo'lib bir Borbadga, bir Sarkashga qaradi shahonshoh.

- Ha, shunday shahonshoh hazratlari, - Borbadning so'zlarini tasdiqladi Sarkash.

- Nega shu paytg'a qadar uni bizning musiqa anjumanlarimizga olib kelmadingiz?.. - so'radi shahonshoh.

- Meni avfu etsinlar shohim. Men Marvdan kelgan bu yigitni ulug'roq bir kunda sizga taqdim etmoqchi edim.

- Navro'zdan ulug'roq kun bormikan?! - dedi Xusrav. So'ng Borbadan so'radi: - Sen yigitcha marvlikmisan?

- Ha, shahonshoh. Men Marv hokimi musiqachisining o'g'liman.

- Demak, Marvda yaxshi musiqachilar bor ekan-da. Shunday katta Eron shohi Sarkash degan musiqachini kuylarini tinglab yursa-yu, Marv degan bir shaharning hokimi ulug' musiqachilarga ega bo'lsa.

- Marv hokimiga bosim o'tkazib, yaxshi musiqachilarni bizga yuborishini so'rab qat'iy talab yuborishimiz mumkin shahonshoh, - dedi saroy amaldorlaridan biri.

- Bu haqda boshqa gapirmang, - uning so'zini kesdi Xusrav. - Marv hokimi bilan bizning qalin aloqalarimiz bor. Buni yaqin vaqtlarda o'z'laringiz bilib olasizlar. Men hozir boshqa bir qarorga keldim.  
- Qaroringiz bosh ustiga, shahonshoh, - uni qo'llab-quvvatladi ayonlar.  
- Qarorim shunday, - dedi Xusrav. - Bugundan etiboran saroy musiqachilariga Sarkash emas, balki Borbad rahnamolik qiladi. Sarkash esa, undan o'rganadi va unga yordam beradi.  
- Sarkash mening rahnamoyim, shahonshoh, - dedi Borbad.  
- Jim bo'ling Borbad, - unga birinchi bor sizlab murojat qildi Sarkash. - Shahonshohning amri vojib. Siz haqiqatan ham saroy musiqachilariga rahnamo bo'lishga haqlisiz.

Borbad rad etmoqchi bo'ldi. Ammo shahonshoh o'z fikrida qat'iy qoldi. Sarkash ham birdan o'zgarib unga mehribon bo'lib, o'z rahnamosidek qaray boshladi. Shoh Xusrav Borbadni Sarkashning uyida yashab yurganligini eshitib unga alohida uy inom ayladi. Shu kundan etiboran uning hayoti tamomila boshqa o'zanga o'zgarib ketdi. U Marvga ketayotgan karvonlar orqali ota-onasiga xat bitib, o'zining salomatligini hamda ishlari qanday rivoj topganligini yozib yubordi. Ko'p o'tmay Marvdan kelgan karvon orqali xatiga ota-onasidan javob oldi. Bu uning ko'nglini ko'tardi. U musiqaning endilikda haqiqatan ham tim yashillikka aylanganligini, agar hayot shunday davom etsa, bir kun Marvga qaytishiga imkon tug'ilajagini his qilardi. U Xusravning adolatpeshaligiga ishonar, shuning uchun o'zini unga yaqin tutar, illo bu hol yana bir vaj bilan bog'liq ediki, Borbad buni inkor etolmasdi. U qandaydir bir ulug' qudrat bilan Gulno'sh visoliga yetishni istardi. Ana shu ulug' qudrat Borbad uchun Xusrav qiyofasida gavdalanardi. Zero, butun dunyoni hozirda ostin-ustin qilayotgan ulug' turk hoqoni Istamin ham shahonshoh Xusrav bilan do'stona aloqalarni ushlab turardi. Demak, shunday qudratli shahonshoh Marv hokimiga yetarlicha tasir o'tkaza oladi. Shu boisdan ham Borbad uning etagini mahkam ushlab qaror qildi. Toza muhabbat uchun kurashayotgan inson bazan shunday suistemolliklarga ham yo'l qo'ysa, uni kechirsa bo'ladi. Zero Borbadga Gulno'shning visoliga yetishmoqlikdan ham ulug'roq bir maqsad yo'q edi. Musiqaning yashillanishi ham ana shu orzuga bo'lgan umidning ro'yobga chiqishiga inja bir intilishning hosilasi edi. Ammo voqealar u o'ylaganchalik juda tez ro'yobga chiqolmasdi. Bunga yaqin yillar ichida bo'lib o'tgan bir qator voqealar sabab bo'ldi. Avvaliga shahonshoh Xusravning Shirin degan bir go'zal malakka oshiq bo'lishi saroydagilarni ancha sarosimaga soldi. Axir Xusravdek ulug' hukmdor, bir kanizakka yetishish uchun davlat ishlariga befarq bo'lib qolsa, buni qanday tushunish mumkin?! Zero, o'sha kanizak uning qo'l ostidagi memor Farhodga unashirilgan edi. Zavjalaridan tashqari haramida shuncha go'zal va bir-biridan maftunkor kanizaklari va cho'rilar bo'lishiga qaramay, o'zga bir yigitga unashirilgan qizga shohning ko'ngil qo'yishi saroy doiralari ancha tashvishga soldi. Axiyri Shirinni Xusrav haramiga keltirishdi. Shoh uning vaslidan mastu-mustag'riq bo'ldi. Visolning shirin onlarini u bilan birga kechirdi. Farhod esa bu ko'rguliklardan kuyib ado bo'ldi. Ammo u bir memor bo'lgani holda shunday ulug' shohga qarshi nima ham qila olardi. Keyingi vaqtlarda ayshu-ishrat bilan mashg'ul bo'lib qolgan shoh huzuriga Borbad shu boisdan ham kirolmadi. Unga Gulno'sh haqida qalbining to'rida saqlagan pokiza niyatlarini aytolmadi. Bu orada ro'y bergan siyosiy voqealargina Xusravning xayolini o'ziga keltirdi. Turk hoqoni Istamin Eronning yon qo'shnilaridan biri Eftalitlar davlatiga davlatga katta kuch bilan yoprilgan hamda Xusrav Anushervonga bu ulkan mamlakatni bo'lib olish haqidagi eski taklifni eslatgan edi. Otasi Qabod davrida eftalitlarga bir muddat boj to'lash zo'rida qolgan Eron bunday vaziyatdani foydalanib qolishi lozim edi. Shuning uchun Xusrav Istamin taklifini bajonidil qabul qilgan holda o'zi boshchiligida katta qo'shin bilan eftalitlar yurti tomon yurdi. Istamin va Xusravning birato'la ikki tarafdin kirib kelishi eftalitlarni ikki tarafdin jang olib borishga majbur qildi va bu jang alal-oqibat ularning mag'lubiyati bilan tugadi. Xusrav Anushervonga Chag'oniyo'ngacha bo'lgan ulkan yerlar tegdi. U shundan so'ng Eronga qaytdi. Bu orada Borbad o'z shogirdlariga musiqaning yangi kuylarini o'rgatish bilan mashg'ul bo'ldi. Ayniqsa Nekiso degan shogirdi Borbadning yo'lini davom ettiradigan istedadli yigit chiqib qoldi. Xusrav Anushervon kelguncha Borbad shu shogirdlarining iqboli bilan o'vora bo'lib yurdi. B Xusrav mamlakatga qaytgach, yana Shirin og'ushiga g'arq bo'lib, atrof-olamni tamoman unutdi. Bundan Borbad biroz g'amgin ham bo'ldi. Ammo bir kuni uni Xusrav huzuriga chorlayotganini eshitdi-yu, ko'nglidagi niyatini aytish imkoniyati yuzaga kelganligidan nihoyat suyundi. Shoh o'z haramida Shirin bilan birga edi. Borbad har ehtimolga qarshi o'zi bilan birga cholg'ularini olib bordi. Shunda oppoq chehrali, qosh-ko'zlari qop-qora, uzun sochlari taqimini o'padigan, qad-qomati ko'rgan ko'zga afsun kabi tasir etadigan malak siymo Shirinni ilk bora ko'rdi-yu Xusravning aql-hushdan nechuk ajralganligini sababini tushundi. Qudratli shoh bo'lganingdan keyin shunday go'zal malak uchun bitta Farhod nima bo'libdi, mingtasidan ham uni tortib olsang arziydi. Xusrav Shiringa nigoh tashlagan Borbadga xiyol kulib qararkan dedi:

- Shunday jononing bo'lishini sen ham istarmiding Borbad?..  
- Men buni xayol ham qilmagan bo'lardim shahonshoh. Mening musiqadan ham bo'lak oromi dilim yo'q, - bosh egib javob qildi Borbad.  
Zero, u shoh kanizaklariga qarashdek gunohi azimga yo'l qo'yganligidan endi xijolat tortayotgandi. Bunday gunoh uchun Xusravning g'azabiga uchrash hech gap emas edi. Ammo Gulno'sh vasliga erishish orzusida yurgan Borbad uchun bu hayotini barbod qilish bilan barobar edi. B Axir u Gulno'sh vaslini Shirinning jamolini bir bor ko'rishga qurbon qilib yuborolmasdi. Zero, Shirin Xusrav bog'ida qulf urib ochilgan binafsha bo'lsa, Borbad uchun Gulno'sh Marv qumloqlarida erta bahor ko'kargan bir boychechak misoli edi. U o'zining qo'li yetmaydigan olis binafshani bir bor ko'rish uchun qalbining to'rida asragan boychechakni bosib o'tib ketolmasdi. Shoh Shirin uchun bir oromijon kuy chalib berishni Borbaddan so'radi. Ulug' musiqachi Gulno'shni sog'inish hajrida yaratgan kuylaridan birini zo'r mahorat bilan chala boshladi. Shunda Borbad Shirinning mijjalarida yosh tomchilari quyilganligini ichki bir sezim bilan ko'ra oldi. Ammo Xusrav bunga etibor bermadi. Bu Farhod uchun to'kilgan yoshlarmidi, yo, shunchaki Borbad musiqasining qudratimidi, ulug' musiqachi buni dafatan anglolmadi. Har holda Shirin Xusrav saroyida shohning eng suyukli kanizagi maqomiga erishgan, bunday istiqbol dunyoning qanchadan-qancha go'zal malaklarining hushini uchirardi. Borbad kuyni chalib tugatarkan, momiq bolishlarga suyanib olgan Xusrav B malaksiymo Shirinning o'ziga yaqinroq o'tirishini so'ragancha, musiqachiga dedi:  
- Bu kuyni qachon yaratgansiz?..  
- Hali Marvdalik paytimdayoq yaratgandim shahonshoh hazratlari, - iltifot bilan dedi Borbad. So'ng ko'nglidagini to'kib solish gali kelganligini sezib davom etdi: - Meni avfu etsangiz shahonshoh, sizga bir gapni aytsam. Ko'p yillardan beri buni aytolmay istihola qilib keldim.  
- Xo'sh, nechuk gap ekan? - so'radi Xusrav.  
- Bu sizga hozirgina chalib bergan kuyimning tarixi bilan bog'liq. Men uni Gulno'sh degan bir qizga ataganman.  
- O, musiqachimizning ham ko'ngli bu yoqda ekan-da, - hayratlandi Xusrav.  
- Uni sevarmidingiz? - nazokatli mayin ovoz bilan so'radi Shirin.

Borbad bir shohga, bir Shiringa qarab oldi. Uning ovozi husniga monand benihoya muloyim va yurakka yaqin ovoz edi. Ammo bu hol unga har kimning ham javob qaytarish huquqini bermasdi. Borbadning istiholasi aynan mana shundan edi. Biroq Xusrav musiqachidan uni qizg'onmasdan dedi:

- Mening go'zal yorimning savoliga javob bering B!

- Ha, uni juda ham sevardim, - xo'rsindi Borbad.

- Uning ismi nima edi? - so'radi Shirin.

- Gulno'sh!!!

- Marvda bu ism odatiy ismlardan bo'lsa kerak hoynahoy, - oraga qo'shildi Xusrav.

- Nechuk bunday o'ylaysiz shahonshoh? - so'radi Borbad.

- Sizning xabaringiz yo'q shekilli, - hayron bo'ldi Xusrav. - Biz yaqinda o'g'lim Sheruyaga Marv hokimining qizini kelin qilyapmiz. Uning ham ismi adashmasam Gulno'sh edi.

- Shundaymi?.. - kalovlanib o'zini yo'qotib qo'yayozdi Borbad.

- Sizga nima bo'ldi? - so'radi Shirin. - Yo, sizning ko'nglingizdagi qiz o'sha Gulno'shmidiz?!

- Men B! Gulno'sh B! Nimalar deyapsiz axir B! Men kimu Marv hokimining qizi kim B!

- Xayriyat-ey, men ham shundaymikan deya qo'rqib ketgandim, - dedi Xusrav.

- Shahanshoh, menga endi ruxsat bersangiz, - bosh egib so'radi Borbad. - Siz hazrati oliylarini Shirin xonim bilan yolg'iz qoldirsam.

- Sizga ruxsat, - qo'li bilan himo qildi Xusrav.

Shirin Borbadning ortidan qarab qoldi. U bu o'sha Gulno'sh ekanligini Borbadga bir qarashdayoq bilgandi. Yaxshiyam Xusrav buni sezmedi. Shoh huzuridan chiqib saroy bog'ida qadam ranjida qilarkan, Borbad bog'da daraxtlarning sarg'ayganligini ko'rdi. Shu ondayoq uning qalbida musiqaning sariq ranglari bostirib kelayotgandi. Gulno'shni Sheruyaga tegishini eshitgan hamonoq musiqaning yashil ranglari ulug' bastakorning tark etayotganligini u ichki sezim bilan angladi B!

### III

Xusravning so'zlari haqiqatga aylandi. Marvhokimining qizi Gulno'shshoh Xusravning o'g'li shahzoda Sheruyaga katta to'yutomoshalar bilan nikohlandi. Shoh Xusrav to'yda musiqa chilarning chiqishlarini Borbadga topshirdi. Borbadni maham qila olardi.

Axir dunyo shundayki, sen aslzoda bo'lib tug'ilmagan ekansan, sening orzuying orzuligi chaqolib ketaveradi. Bunday vaziyatda sen o'z taqdiringni o'zgartir olmasan. Oddiy musiqachining o'g'li kimu shahonshohning o'g'li kim?! Musiqachining o'g'li nari borsa musiqachi bo'lar, shohning o'g'li esa, bir kuni shahonshoh bo'ladi. Gulno'sho yoqyalang musiqachini tanlarmidi?!

Musiqachining rafiqasi qayda-yu, butun mamlakatning malikasi bo'lish qayda?! O, xom sut emgan Borbad! Sen sevgi bor deb o'ylovmidiz?! Chin muhabbat muzaffariyat qozonadi, deb xayol surganmidiz?! Agar shunday bo'lganida, Shirin Farhod bilan tog'u-toshlarga qochib ketmasmidi?! U nima qildi?! Xusravning yumshoq par to'shaklari-yu, ipak bolishlarga ega haramini tanladi. Ehtimol qachonlardir kelajak shoirlari Farhod Shirinlarning muhabbatini yozib, oshiqlar dili entiktirar?! Ammo u muhabbatlarning haqiqiy hayotda hech qachon ro'y bermasligini ham ular yozisharmikan?! Gulno'sh va Borbad sevgisini ham butun fojealari bilan qachonlardir yozisharmikan?! Borbad yuragida umid o'lganligini sezdi. Buni shogirdi Nekiso bir qarashdayoq payqadi:

- Sizga nima bo'ldi ustoz? - so'radi u saroy musiqa xonasida ishlab turganlarida. - Valiahd shahzoda Sheruyaning to'yidan beri juda ham xomush bo'lib qoldingiz?..

- Endi keksardim shekilli, - dedi Borbad. - Mening musiqam sarg'ardi.

- Ustoz, nimalar deyapsiz? - o'zini yo'qotib qo'ydiki Nekiso. - Hali juda yoshsiz. Qanaqasiga keksarasiz?..

- Keksarish yosh bilan bog'liq bo'lganida edi, Nekiso, - dedi Borbad. - Men hali juda ko'p yashagan bo'lardim. Sen ishonasanmi, yo'qmi, men endi, musiqaning faqat sariq ranglarini ko'rmoqdaman. U daraxtlarning to'kilayotgan zafaron barglari yanglig' sap-sariq. Men Gulno'shni Sheruyaning rafiqasiga aylanganidan buyon uyg'onganimdan uyquga ketganimga qadar musiqaning sap-sariq rangini ko'rmoqdaman B!

Nekiso, ustozining mungli kechmishidan bir qadar xabardor bo'lgani holda valiahd shahzoda Sheruyaning rafiqasi Gulno'shga ustozlari Borbadning allaqachonlardan beri ko'ngli borligini bilarkan, qo'rquvdan tizzalari dag'-dag' titradi. Zero, bu hol oshkor bo'lsa, ustozining holiga voy ekanligini u juda yaxshi bilardi. Bunday holatda saroy mahkamasidagilar Nekisoni ham ayab o'tirishmasa kerak. Ammo Borbadning o'z fikrini bu taxlit aytishi Nekisoni boshini qattiq qotirdi. Lekin buni ustoziga qanday tushuntiradi. Yo'q, buni Borbadning o'zi tushunishi kerak. Ha, sevib ko'rmagan odam shunday o'ylaydi. Nekiso buni qayoqdan ham bilsin. Axir yurak har doim ham aqlning tizginiga kiravermaydi-ku?! Borbad buni yaxshi biladi. B Ammo sevgiga uning munosabati endi o'zgargandi. Xuddi musiqaning sariq ranglari kabi uning yuragi endi o'zgargandi. Agar dunyoda qandaydir insoniy muhabbat chin bo'lsa, bu ota-onangga bo'lgan muhabbat bo'lsa kerak. Borbad shundan chuqur xo'rsinardiki, ko'pdan beri ota-onasidan xabar yo'q edi. U xuddi avvalgidek, Marvga ketayotgan karvonlardan tez-tez xat jo'natardi. Ammo endi ko'p vaqtdan beriki, biron javob kelmasdi. Borbad musiqasining rangi balki shundan ham sariq rangga aylangandir. Yana kim bilsin. U Marvning suvsiz adirlarini eslardi. Sap-sariq rangga bo'yalgan adirlar. Gulno'sh Xusrav saroyiga o'sha adirlarni oshib kelgan. Xusrav Shirin bilan qanday baxtiyor bo'lsa, Sheruya Gulno'sh bilan shunday baxtiyor. Borbad endi xuddi Farhoddek kuyib ado bo'ladi. U sariq rangli musiqaga shunday kuyni ko'rardi. Bu Farhodga aylangan Borbad, yoyinki, Borbadga aylanayotgan Farhod edi. U Farhod teshasini ko'tarib tog'u-toshlardan suv chiqaraman deb yurar, jahannamday cho'llarda tamoqlari qaqrab axiyri jon berardi. Xusrav esa Shirinning oromijon og'ushida muhabbat bolini simirardi. Shunda u yana Borbadga aylanardi-da, Gulno'shni deb o'ziga shunday noravo taqdirni tanlagandi. Uni har kuni tongdan shomgacha o'yarlardi. Ammo u xuddi Shirin kabi oromijon haramni tanlagandi. Unda Sheruya baxtdan masrur edi. Borbad esa, xuddi Farhod kabi orzuning achchiq talxlarini ichib ado bo'ladi B!

Borbad shunday xayollar ichra umrguzaronlik qilarkan, saroyda voqealar boshqa o'zanga qarab ketayotganligini deyarli sezmay ham qoldi. Sheruya otasi Xusravni Shirinning og'ushidan beri kelmay qo'yganligidan avvaliga qattiq taajjublandi. So'ng bu hol Sheruyaga Shirinning jamolini ko'rishga ishtiyoq uyg'otdi. Axiyri u bir amallab bu xohishiga erishdi. Shoh Xusrav ovga chiqqanida otasining haramiga yashrincha kirib Shirinning jamolini ko'rishga muyassar bo'ldi. Bu Sheruyada otasiga nisbatan hasad va nafrat uyg'otdi. U xuddi Gulno'sh singari Shirin ham o'ziniki bo'lishini istadi. Sulaymon payg'ambar yuzlab go'zal kanizaklari bo'lishiga qaramay davronning malaksiymo go'zali Bilqisga yetishganidek, Sheruya ham Gulno'shdek dilbar malagi bo'lishiga qanoat qilmay Shirinni ham o'z og'ushiga bo'lishini xohladi. B Ammo bu niyatga yetish uchun avvalo otasidan taxtni

tortib olish lozim. Axir otasi Xusrav ham o'z davrida xuddi shunday qilgan-ku?! Sheruya shu niyatda atrofida o'ziga sodiq odamlarni to'pladi. Axiyri u istagan niyatiga erishdi. Xusravni taxtdan chetlashtirib qatl ettirdi. Bularning hammasi qanday bo'lganini Borbad yaxshi bilmaydi. Bilganlarini ham shogirdi Nekisoning og'zidan eshitdi.

- Nahotki, shunday bo'lgan bo'lsa?! - deya oldi u.

- Ha, shunday bo'ldi, ustoz, - dedi Nekiso. - Endi biz nima qilamiz?..

- Hammasini vaqt to'g'rilaydi, - dedi Borbad. - Sen uyingga boraver Nekiso. Men yolg'iz qolmoqchiman.

Nekiso ketgach, Borbad taqdirning bunday ko'rguliklariga ortiq chiday olmasligini ilg'adi. U Xusrav inom etgan uyidagi barcha musiqa asboblari hovliga olib chiqdi-da, hammasiga o't qo'yib yubordi. Yog'ochdan yasalgan musiqa javonlari olovda lang'illab yona boshladi. Shu paytga qadar uning qalbida to'lg'ongan musiqaning sariq ranglari endi olov tillarining sariq tuslari bilan batamom aralashib ketgandi. U musiqa javonlar va asboblari yoqarkan, bu bilan cheklanib qolmadi. Uning ko'z o'ngidan Sheruyaning badniyat og'ushida to'lg'onayotgan Gulno'sh va Shirin o'tdi. U qo'llariga qanday qilib tesha tushib qolganligini ilg'ay olmadi. Gulno'sh va Shirinni og'ushiga navbatma-navbat g'arq bo'layotgan Sheruya undan musiqa chalishni talab qilardi. Ammo Borbad bu qabohat oldida musiqa chalishni istamasdi. B U teshani qo'lga olarkan, shunday musiqa chalgandan ko'ra, barmoqlarini chopib tashlashni afzal bildi. Tesha shartillaganicha uning barmoqlari ustiga yugurardi. Bu Farhodning suv chiqaraman deb kimsasiz cho'lda jon berayotganda qo'lida qolgan o'sha tesha edi. Ammo suv yo'q, musiqa javonlarini yumlamay yutayotgan yuho olov yonardi. Tesha esa Borbadning barmoqlarini bitta qoldirmay chopib tashladi. Toki, u endi boshqa musiqa chala olmasin. Musiqaning sariq ranglari olovda shunday yonardi. Kesilgan barmoqlaridan qon oqayotgan Borbad olovga shunday tikilib turardi. Endi unga bu uyning ham, bu xotiralarning ham keragi yo'q edi. U bularning hammasini sariq musiqaga qo'shilib yonib ketishini istardi.

Borbad shunday alfozda bu uydan bosh olib chiqib ketdi. U Marvdan Eronga kelgan dastlabki paytda turgan o'sha musofirxonaga qaytib keldi. Zero uning ko'ngli sariq musiqa yonayotgan na o'sha uyga, na Gulno'sh va Shirin azoblanayotgan Sheruyaning saroyiga borishni istardi?! O'ziga qolsa, mana shu musofirxonada o'lib ketsa ham mayli edi. Ammo bunday bo'lmadi. Shogirdi Nekiso, bir haftaga qolmay uni shu yerda ham topib keldi. U ustozining g'arib va miskin ahvolini ko'rarkan, yig'lab yubordi:

- Sizga nima bo'ldi, ustoz?..Nega bunday ahvolda tushdingiz?.. Diltortar musiqa chaladigan barmoqlaringiz qani?..

- Nekiso, yig'lama, musiqa chalishim uchun endi menga barmoqlarning hojati yo'q. Ularning hammasini senga o'rgatganman. Sen ularni boshqalarga o'rgat. Shunda Borbad asrlar bo'yi yashayveradi B!

Nekiso Borbadning yonida ko'p vaqt qoldi. Kechga yaqin Borbad uni yupatib, zo'rg'a uyiga jo'natib yubordi. U ertaga yana kelishini aytib ustozni huzuridan bir ahvolda jo'nab ketdi. Musofirxonasidagi xonasida yolg'iz qolgan Borbad Erondagi safari endi qariganligini ilg'adi. Zero uni bu yerda yaydoqlik va hech kimsizlik qo'ynida sariq musiqa taqib qilardi. Garchand uning musiqa chaladigan barmoqlari yo'q, ammo uning dilgir qalbida, o'sha, sariq musiqa tanovar chalardi. Borbad yurakni ezg'ilovchi bu manfur kuyning istilosidan qalbini qutqazish uchun Marvga qaytishga qaror qildi. U shu niyatda toki shogirdi Nekiso bu yerga kelmasidan ketishga ahd qilib yo'l tadorigini ko'rdi. Borbad o'zini hech kim tanimasligi va bezovta qilmasligi uchun o'zining bejirim uslubda tikilgan kiyim-boshlarini darveshlar xirqasiga almashtirdi. So'ng yonida qolgan oxirgi pullarini oldida Marvga ketayotgan karvonga qo'shilib oldi. Oxirgi marotaba uni ko'rgan eronliklar buyuk bastakor va musiqachini shunday alfozda eslab qolishdi. Buyuk Ipak yo'lining chorrahalarida o'sha yo'lga tushgan karvon uning qatimday bo'lib qolgan lochini Marv tomonga olib borardi. Borbad yo'l yurarkan, sariq musiqa yo'l-yo'lakay uni bir muddat ham tark etmaganligini ko'rdi. Garchand u bir paytlar uni umid sari boshlagan xotiralarini unutishga harakat qilar, Gulno'sh va Shirinning fojeasini eslamaslikka intilar(balki ular uchun bu hol, ehtimol umuman fojea emasdir), ammo sariq musiqaning qahrabodek ohangrabosi uning qalbida mungli va zalvorli kuyni chalardi. Borbad shunday alfozda Marvga qanday kirib kelganligini ham bilmadi. Marv buyuk bastakorni sariq rangga bo'yalgan qumtepalarida o'sha jimjitlik va iltifotsizlik bilan kutib oldi. Holbuki, Marv, Marv bo'lgandan beri uning ulug' geniyni ko'rmagandi. Ammo hozir Borbad ularni o'ylamas, uning birdan-bir fikru-xayoli sariq musiqaning taqibidan qutilish edi. U karvonsaroydan chiqib, Marv bozori ko'rgach, o'zining bu yerdan ketgan damlari xayolidan o'tdi-da, bozorga kirib otasi bilan omonatga qoldirib ketgan musiqa javonlarini qaytarib olishga tutindi. Zero, bu asboblarning bolalik va o'smirlilik yodi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hozirgi baxtsizligining umtilgan mungli kechmishini unutishga yordam bersa ne ajab. Ehtimol, sariq musiqaning bag'rini parchin qilayotgan azobu-iztiroblaridan Borbad qutular, yana kim bilsin. Biroq Borbad kechikkandi. Kun og'ayotgani uchun bozordagilar allaqachon ketib bo'lishgan, bozorda shu yerda ertadan-kechgacha sang'ib yuradigan uch-to'rtta daydi-yu bo'zini sota olmay o'tiradigan bo'zchilardan bo'lak hech kim yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, Borbad, ulardan musiqa javonlari sotadigan rasta egalari so'rab ko'rdi, ammo, ularning masxaromuz so'zlarini tinglagach, bu yerda ortiq qolish bafoydaligini anglab uyi tomonga shoshildi. Biroq neafsuski, uni bu yerda ham, hech kim yo'lga ko'z tikib kutib o'tirgani yo'q edi. Borbad ketganidan so'ng, uning ota-onasi yolg'iz farzandlarining dog'ida kuyib, orqama-oldin olamdan o'tib ketishgandi. Ularning Borbad bilan xat-xabarlarining aloqasi uzilishining birdan-bir sababi shu edi. Borbad uyiga kelarkan, bu yerda hech kim yo'qligini ko'rib qattiq sarosimaga tushdi. Allazamonlardan beri hech kim yashamaydigan uyda tuyusdan darvesh xirqa kiygan mayishgan cholning paydo bo'lishi bu uyning qo'shnilarini ham Borbadan kam sarosimaga solgani yo'q. Ular qanchalik harakat qilishmasin bu cholning mazkur uyga qanday aloqasi borligini eslasholmadi. Lekin uning qachonlardir yashab o'tgan uy egalari nimasi bilandir o'xshashligi ularndan undan ortiq shubhalanishga asos qoldirmadi. Qo'llarining barmoqlari cho'ltoq bo'lgan, yuzlarini ajin bosgan chol uyga kirarkan, uning allazamonlardan beri ochilmagan zil-zambil havosi uning o'pkasini to'ldirdi. Shunda u o'zini sariq musiqa butunlay tark etganligini ammo undanda zalvorliroq, undanda mudhishroq qora musiqa cho'lg'ab olganligini his qildi. Borbad endilikda o'zi ham tanimaydigan qo'ni-qo'shnilaridan uyning egalari qayoqqa ketganligini surishtirarkan, ulardan biri unga muloyimroq ohangda dedi:

- Yo'qlikka ketishdi birodar B!

Borbad shundagina ularning vafot etishganiga ishonadi. Shunda uning shundoq ham kuchdan qolgan qo'l-oyoqlari shalvirab qoldi. Marvga kelganidan beri oqara boshlagan soch-soqollari bir oqshomda oqarib ketdi. Qalbining tub-tublaridan esa ulkan o'kirik kabi potragan qora musiqa sizib chiqdi. Borbad qalbidan bu musiqa shunday katta kuch bilan sizib chiqardiki, dunyoda hech qanday katta buni to'xtata olmasdi. Bu musiqaning dovuri Borbad kirgan uyning butun zulumatini to'ldirdi. Go'yoki, butun oqshom ana shu qora musiqaning zil-zambil zalvori bilan to'ldi. Borbad o'zining qadrton va begona uyida yo'qlik yostig'iga sekingina bosh qo'ydi va ko'zlarini yumdi. Shunda qora musiqa uning butun borlig'ini qamrab oldi B!

This is not registered version of TotalDocConverter